

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAJIDOVA ZULAYHO ABDIMUMINOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA DIREKTIV NUTQIY AKTLARNING  
SEMANTIK-PRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**UO‘K:** 811.111'1-115  
811.512.133'1-115

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Majidova Zulayho Abdimuminovna**

Ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning semantik-pragmatik tadqiqi.....3

**Majidova Zulaykho Abdimuminovna**

Semantic-pragmatic study of directive speech acts in the English and Uzbek languages.....25

**Мажидова Зулайхо Абдимуминовна**

Семантико-прагматическое исследование директивных речевых актов в английском и узбекском языках.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ .....52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAJIDOVA ZULAYHO ABDIMUMINOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA DIREKTIV NUTQIY AKTLARNING  
SEMANTIK-PRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2767.raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме) Farg'ona davlat universiteti veb-saytida (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Egamnazarova Durdona Shuxratilloyeva  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Sodiqov Zohid Yakubjanovich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

Paluanova Halifa Daribayevna  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Jizzah davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning «19» aprel 2025-yil soat 11.00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'iloniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (993873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).


Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (492 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (993873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 27 » mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 27 » mart dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
S.M.Muminov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filol.f.d., professor

  
M.T.Zokirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

  
A.G.Sabirdinov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, pragmatika, semantika, pragmalingvistika kabi yangi sohalarining paydo bo'lishi hamda shiddat bilan rivojlanishi turli tadqiqotlarning olib borilishiga asos bo'ldiki, ularning qanday maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yganligi, jamiyat taraqqiyoti uchun qay darajada xizmat qilishi kabi masalalarni yoritishni taqozo etadi. Zero, ta'lim va tarbiyaga berilgan e'tibor bu xalq kelajagi farovonligining garovidir.

Dunyo tilshunosligida pragmalingvistikaning nutqiy aktlar, ularning turli mezonlar asosida tasniflanishi, ingliz va o'zbek tillari kesimida tahlil qilinishiga oid ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunday ilmiy tadqiqotlar orasida direktiv nutqiy aktlarning semantik va pragmatik tadqiqi, ularning klassifikatsiyasi hamda ingliz-o'zbek tillarida chog'ishtirma planda tahlil etilishi yoritilishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligi oldida til va nutq tizimlarini zamonaviy – innovatsion yondashuvlar asosida tadqiq etish, globalizatsiya sharoitida amalda bo'lgan ilg'or g'oyalarni samarali o'zlashtirish tajribasini yana ham yuqori pog'onalarga olib chiqish vazifasi turibdi. Xususan, xorijiy tillar nazariy asoslari tadqiqi asosida til ta'limining samarasini oshirish masalasi barchaning e'tiborida turibdi. Mamlakatimizda chet tillar ta'limi bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham pragmalingvistika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga turtki beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni<sup>1</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori chet tillarini o'rgatish tizimini takomillashtirishni, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, har jihatdan mukammal kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 12-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida "nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirish zarur"<sup>2</sup> – ekanligini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ– 3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida [Elektron resurs] [https://lex.uz/docs/-3107036\(murojaat\\_sanasi:03.26.2024-y.\)](https://lex.uz/docs/-3107036(murojaat_sanasi:03.26.2024-y.))

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5774> (murojaat sanasi: 01.12.2023-y.)

8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-5117-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida nutq aktlari nazariyasi semantika va pragmatikaning kesishgan nuqtasida joylashgan fundamental yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Nutq aktlarini semantik va pragmatik jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa kuchaygan. Bu yo‘nalishda ingliz tilshunosligi maktabining yirik vakillari – Jon L.Ostin (J.L.Austin), Jon R.Syorl (J.S.Searle) va Charlz U.Kreidler (C.W.Kreidler)<sup>3</sup> kabi olimlar nutq aktlarining tabiati, turlari, illokutsion kuchi, perlokutsion ta’siri va ularning kontekstual faoliyatini aniqlashda muhim ilmiy asoslar yaratdilar. Aynan ushbu tadqiqotchilarning ishlari nutq aktlarini, xususan, direktiv nutqiy aktlarni alohida tur sifatida ko‘rib chiqish va ularni har tomonlama tahlil qilishga zamin yaratdi.

So‘nggi yillarda G‘arb tilshunosligida direktiv nutqiy aktlarning semantik-pragmatik xususiyatlarini chuqur tadqiq qilish bo‘yicha yangi metodologik yondashuvlar yuzaga kelmoqda. Jumladan, S.Takahashi va A.N.Santoso<sup>4</sup> singari zamonaviy tilshunoslar direktiv aktlarni umumiy nutq aktlari tizimi doirasida tahlil qilib, ularni buyruq, so‘rov, maslahat, iltimos, ogohlantirish, ko‘rsatma kabi turlarga ajratishgan. Ularning tadqiqotlari direktiv aktlarning ifodaviy vositalari, kontekstga bog‘liqligi, kommunikativ niyatga xizmat qilishi va madaniyatlararo farqlari kabi ko‘plab jihatlarni yoritishga xizmat qilgan. Bunday yondashuvlar direktor nutqiy aktlarning nazariy tasnifi va funksional tahliliga yangicha qarash olib kirdi.

Rus tilshunosligida esa ushbu nazariya semantik-struktural va kommunikativ-pragmatik yondashuvlar asosida shakllangan bo‘lib, E.I.Belyayeva, N.I.Farmanovskaya, Yu.D.Apresyan, N.D.Artyunova, E.V.Paducheva,

---

<sup>3</sup> Austin J.L. How to do things with words. – Harvard university press, 1975; Smith B., Smith B.C. (ed.). John Searle. – Cambridge University Press, 2003; Kreidler C. Introducing english semantics. – Routledge, 2002. – P. 168.

<sup>4</sup> Takahashi S. The effect of pragmatic instruction on speech act performance //Speech act performance: Theoretical, empirical and methodological issues. – 2010. – T. 26. – P.127-144.; Santoso A.N., Affini L.N. A Material Development of Speech Act as its Contribution For a Vocational High School English Handbook at an Eleven Grade //ETERNAL (English Teaching Journal), 2019. – T. 10. – №. 2. P. 88-93.

V.V.Bogdanov, V.G.Gak, I.P.Susov, A.V.Bondarko<sup>5</sup> kabi yirik olimlarning asarlarida nutq aktlarining lingvistik xususiyatlari, aktlar orasidagi chegaralar, kontekstual shart-sharoitlar va kommunikativ niyatlar bilan bog‘liqligi chuqur tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar Rossiya lingvistik maktabining pragmatikaga oid yutuqlarini mustahkamlab, tilshunoslikda nutqiy aktlarga nisbatan nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish imkonini bergan.

Biroq, mavjud boy ilmiy merosga qaramay, o‘zbek tilshunosligida aynan direktiv nutqiy aktlarning o‘ziga xos semantik-pragmatik xususiyatlari, ularning ifodaviy modellari, kontekstual sharoitda ishlatilish uslublari, kommunikativ maqsadlar bilan uyg‘unligi va madaniy jihatlari hali yetarlicha chuqur va tizimli tadqiq etilmagan. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan ayrim lokal tadqiqotlar (masalan, A.Nurmonov, M.Xakimov, A.X.Aripova<sup>6</sup>) mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘proq umumiy yondashuvlar doirasida bo‘lib, direktiv aktlarning turlarini tizimli tasniflash, ularning o‘zbek tilidagi pragmatik va semantik realizatsiyasini kompleks yoritish kabi muhim masalalar hali ham o‘z ilmiy yechimini topmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda Andijon davlat universitetining “XXI asr tilshunosligining ustuvor yo‘nalishlari” mavzuidagi ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda ochib berish, ularning lingvistik ifoda vositalari, kontekstual realizatsiyasi va kommunikativ funksiyalarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:**

hozirgi zamon tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasining o‘rganilganlik darajasini aniqlash, xususan, direktiv nutqiy aktlarga oid ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish va tahlil qilish;

---

<sup>5</sup> Belyayeva E.I. Funktsional’no-semanticheskiye polya modal’nosti v angliyskom i russkom yazykakh [Functional-semantic modality fields in English and Russian] //Voronezh: Izd-vo Voronezhskogo un-ta [in Russian]. – 1985. – P.180; Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – Рипол Классик, 1989. – P 161; Апресян Y.D., Mel’čuk I., A., Žolkovsky A.K. Semantics and lexicography: Towards a new type of unilingual dictionary //Studies in syntax and semantics. – Dordrecht: Springer Netherlands, 1969. – С.33; Арутюнова Н. Предложение и его смысл. Логико-семантические проблемы. – 1976. – С.382; Paducheva E. V. Taxonomic categories and semantics of aspectual opposition //Temporal reference, aspect and actionality. – 1995. – Т. 1. – С.71-89; Богданов В. В. и др. Статус прагматики в современной науке о языке //Теркулов В.И.–заведующий кафедрой русского языка (Донецкий национальный университет), д.ф.н., профессор; Калинин ВМ – заведующий кафедрой русского языка (Донецкий национальный медицинский университет им. М. Горького), д.ф.н., профессор; Фёдоров ВВ.–заведующий кафедрой истории русской литературы и теории. – С. 104; Сусов И.П. Мысли о лингвистике (из неопубликованного) //Когниция, коммуникация, дискурс. Направление: “Филология. – 2014. – №. 8. – С.120-130; Бондарко А.В. Проблемы грамматической семантики и русской аспектологии. – Автономная некоммерческая организация "Издательство Санкт-Петербургского государственного университета", 1996. – С.219.

<sup>6</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар //Уч жилдлик. – 2012. – Тошкент, 1. – 308; Б. Хакимов М. Х. К прагматике экстралингвистических средств в узбекском языке (на примере рассказа Саида Ахмада "Коракуз мажнун") //Российская тюркология. – 2015. – №. 1. – С. 9-12; Арипова А. Х. Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита //Scientific progress. – 2021. – Тошкент, 1. – №. 6. – С.243-264.

nutqiy aktlarning, ayniqsa direktiv aktlarning dialogik nutqda kommunikativ muvaffaqiyatni ta'minlashdagi roli va samaradorligini lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish;

irektiv nutqiy aktlarni ifodalovchi grammatik vositalarning ingliz va o'zbek tillaridagi struktur-semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlash;

direktiv nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalarning har ikki tildagi semantik, funksional va stilistik jihatlarini tahlil qilish hamda ularning diskursdagi ishlatilish imkoniyatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning semantik va pragmatik tasnifini ishlab chiqish, ularning turli kommunikativ holatlardagi ifoda shakllarini bilan tavsiflash;

ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning diskursiv xoslanishiga doir jihatlarini chog'ishtirma tahlil qilish, ularning muloqot strategiyalari va nutq janrlaridagi ifoda xususiyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** ingliz va o'zbek tillarida maishiy, badiiy, media, siyosiy va diniy diskurslarda yuzaga kelgan direktiv nutqiy vaziyatlardir.

**Tadqiqotning predmeti** ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv nutqiy aktlarni ifoda etuvchi grammatik va leksik vositalarning struktur-semantik va funksional-pragmatik xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda interpretatsiya, tavsifiy, chog'ishtirma, kontekstual, lingvostatistik, distributiv, komponent va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

muloqotning eng kichik funksional birligi nutqiy harakat (speech act) hisoblanib, u faqatgina suhbat ishtirokchilarining kommunikativ niyatini emas, balki muloqotning kechayotgan makoni, zamoni, ijtimoiy-vaziyatli konteksti, shuningdek, so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy-psixologik xarakteristikalari kabi turli ekstralingvistik omillarni inobatga olishni taqozo etishi ilmiy jihatdan asoslandi;

uloqotni amalga oshirishda erishiladigan maqsadning xususiyatiga ko'ra, preskriptiv, rekvestiv va suggestiv turdagi direktiv nutqiy aktlardan biri tanlanishi, hamda uning kommunikativ jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muayyan grammatik va leksik vositalarning tanlovi zarur ekani aniqlandi;

direktiv nutqiy aktlarning semantik-pragmatik tasnifi asosida ular quyidagi kichik guruhlariga ajratilishi isbotlandi: reskriptiv turkum: *buyruq, ko'rsatma, ruxsat, taqiq, buyurtma, talab*; rekvestiv turkum: *iltimos, o'tinish*; suggestiv turkum: *maslahat, taklif, ogohlantirish, ruhlantirish* kabi ifoda shakllari;

ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarni voqelantiruvchi leksik va grammatik vositalar tizimining kommunikativ-pragmatik va funksional jihatlarini bilan farqlanishi amaliy tahlillar asosida dalillandi; har ikki tilda mazkur vositalar muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, madaniyatga xos etik normalar, nutq holati va kontekst talablariga muvofiq tanlanishi asoslandi.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

oliy o‘quv yurtlarida umumiy, qiyosiy, ingliz va o‘zbek tilshunosligi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, shuningdek, tarjimashunoslik bo‘yicha darsliklar yaratish hamda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning mukammallashuviga xizmat qiladigan materiallar yig‘ilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutq aktlarning dialogik vaziyatlarda qo‘llanilishiga ko‘ra faollik darajasi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning buyruq, iltimos, maslahat, talab va taklifni ifodalashdagi farqlar tizimga solingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalar, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarni ifodalovchi vositalar chog‘ishtirma tahlili (dialogik nutq misolida) xulosalaridan semantika, pragmalolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiololingvistika sohalariga oid ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Tarjima nazariyasi”, “Pragmalolingvistika”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Stilistika”, “Chet tili (ingliz)” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma yaratishda; spichrayterlar (nutq yozuvchilar) va tarjimonlarning amaliy faoliyatida, shuningdek, reklama matnlarining ta’sir doirasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek tillarda direktiv nutqiy aktlarning semantik-pragmatik tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

muloqotni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadga ko‘ra preskriptiv, rekvestiv, suggestiv direktiv nutqiy aktlarning biri tanlanadi hamda uning amalga oshirilishi uchun muayyan grammatik va leksik vositalar xususidagi xulosalardan Erasmus+dasturining Project № 5983-40-EPP-1-2017-T-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) grant loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 7-fevraldagi 04/11-1061-son ma’lumotnomasi). Natijada magistratura talabalari uchun yaratilgan ma’ruza matnlari yanada boyitilib, direktiv nutqiy aktlar tasnifi va unga doir misollar bilan boyitilgan;

muloqotning eng kichik birligi nutqiy harakat bo‘lib, u nafaqat suhbat ishtirokchilari niyatini, balki muloqot kechayotgan makon, zamon, vaziyat, so‘zlovchi va tinglovchining xarakter-xususiyatlari kabi turli ekstralingvistik omillarni ham inobatga olishni taqozo etishiga bag‘ishlangan tahliliy fikrlari va nazariy xulosalaridan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Hamma uchun” dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 24-oktyabr sanasidagi 06-28/1420-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarni o‘zbek va ingliz tillarida direktiv nutqiy aktlarning turli diskurslarda namoyon

bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, farqli va o'xshash jihatlari bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etgan;

direktiv nutqiy aktlar buyruq, ko'rsatma, ruxsat, taqiq, buyurtma, talab kabi preskriptiv, iltimos, o'tinish kabi rekvestiv, maslahat, taklif, ogohlantirish, ruhlantirish kabi suggestiv kichik guruhlariga bo'linishiga oid xulosalaridan Amerika qo'shma shtatlari Ogayo universiteti intensiv ingliz tili Ogayo dasturi loyihasida foydalanilgan (Ogayo universiteti intensiv ingliz tili Ogayo dasturining 2023-yil 11-oktyabr sanasidagi ma'lumotnomasi). Natijada bakalavriat hamda magistratura talabalari uchun yaratilgan ma'ruza matnlariga qo'shimcha foydali ma'lumotlar kiritilib, direktiv nutqiy akt semantik va pragmatik tadqiqiga oid manbalar bilan boyitilgan;

direktiv nutqiy aktlarni voqelantiruvchi leksik va grammatik vositalar tizimining ingliz va o'zbek tillarida kommunikativ, pragmatik, funksional jihatlari tahliliga oid taklif va mulohazalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-201709134-sonli "Filologiya yo'nalishi bo'yicha ingliz tili o'rganishni baholash sifatining shakl va tamoyillari" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o'z aksini topgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 2024-yil 11-iyuldagi 04/11-5560-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Filologiya" yo'nalishi bo'yicha ingliz tilini o'rgatish tadqiqot loyihasi kontenti boyitilib, til o'rganuvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini o'stirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari 156 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, dissertatsiyaning fan va texnologiyalarni shakllantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotning birinchi fasli "**Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy aktlar nazariyasiga turlicha yondashuvlar va direktiv nutqiy aktlarning o'rganilish holati**" deb nomlangan bo'lib, u quyidagi qismlardan iborat: "Hozirgi zamon tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasi masalasiga munosabat va yondashuvlar

hamda unda direktiv nutqiy aktlarning o'rganilish holati", "Direktivlikning ingliz va o'zbek tillarida funksional-intentsional kategoriya sifatida tadqiqi", "Nutqiy aktlarning tasnifi muammolari: asos va tamoyillar".

Mazkur bobda jahon tilshunosligida XX asrning 2-yarmida paydo bo'lgan pragmatolingvistikaning paydo bo'lishi tarixi, uning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan amerikalik olimlar Jon Ostin hamda uning izdoshlari Jon Syorl, M.Xelliday, P.Grays, Kristison, D.Heyms, D.Vanderveken kabi olimlarning izlanishlari, ular tomonidan asos solingan "Nutqiy aktlar" nazariyasi hamda nutqiy aktlar tasnifi singari masalalar haqida nazariy fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Zamonaviy nutqiy akt nazariyasini britaniyalik faylasuf Jon Lengshou Ostin 1975-yilda o'zining mashhur "How to do things with words" nomli kitobida ilgari suradi<sup>7</sup>. Jon Ostinning izdoshi Jon Syorl birinchilardan bo'lib uning "nutq aktlari" maqolasiga e'tibor qaratadi. J.Syorlning qarashlariga ko'ra nutq aktlari o'zicha mavjud bo'lmaydi, balki aynan idrokimizga bog'liq holatda mavjud voqea-hodisalarni ifodalashi mumkin.

Nutqiy aktlar Syorlning tasnifiga ko'ra 5 turli kategoriyalarga bo'linib<sup>8</sup>, reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklartivlardan iborat.

E.I.Belyayeva, A.P.Volodin, V.S.Xrakovskiy, M.D.Gorodnikova, D.O.Dobrovolskiy, G.G.Pochepsov, Ts.Sarantsatsral, J.Syorl, E.A.Filatova, N.I.Formanovskaya, Yu.Xabermas, U.Engel, K.Unrat-Sharpenak kabi olimlarning tadqiqotlaridagi nutq aktlari tasniflanishi tahlili direktiv nutqiy aktlarining 5 ta asosiy turlarini aniqlash imkonini berdi.

Buyruq direktiv nutqiy aktlar: *Come closer and listen to me thoroughly (yaqinroq kel va meni diqqat bilan eshit). Ask him about the event, he will tell you everything (Undan voqea haqida so'ra, u senga barchasini aytib beradi)*

Taqiq ma'nosiga ega direktivlar, odatda, inkor so'zlar yoki qo'shimchalar vositasida ifodalanadi hamda tinglovchining muayyan ish-harakat bajarishiga qarshilik bildirish maqsadida qo'llaniladi: *Don't ask me to agree with your marriage (sening turmush qurishingga rozilik berishimni so'rama). Never say never (hech qachon hech qachon dema). Iltimos ohangidagi direktiv nutqiy aktlar xushmuomalalik qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda intonatsiya, so'zlarning qo'llanilishi hamda xushmuomalalikni bildirgan holda o'z fikrini qabul qiluvchiga yetkazishdir: Could you close that window? There is a drought in this room. (Siz anavi derazani yopib qo'ya olasizmi? Xonada yelvizak bo'lyapti)*

Maslahat ma'nosini ifodalaydigan direktiv nutqiy aktlar esa tinglovchiga o'z fikrini maslahat tarzida yetkazish vositasidir: *You should listen to your mother (Sen onangga quloq tutishing kerak). I think you should learn how to drive first and then sit behind the vehicle (O'ylashimcha, sen oldin qanday mashina haydashni o'rganishing va so'ng mashinaga o'tirishing kerak).*

Taklif mazmunidagi direktiv nutqiy aktlar o'z o'rnida adresantga o'z fikr mulohazalarini taklif berish shaklida yetkazadi hamda shu o'rinda aytib o'tish lozimki, xuddi maslahat direktiv nutqiy aktlari kabi taklif mazmunidagi direktiv

<sup>7</sup> Nordquist R. Speech-Act Theory //Retrieved Sep. – 2019. – T. 29. – C.2018.

<sup>8</sup> Ko'rsatilgan manba, – P 264.

aktlari natijasida ham adresant ushbu taklifni bajarishi yoki uni rad etishi mumkin: *Let's go to a a new restaurant that opened at the end of this street* (Keling, ko'chaning oxirida ochilgan yangi restoranga boramiz).

Direktiv nutqiy aktlarning badiiy diskursda qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari haqida Farg'ona tilshunoslik maktabi vakili – U.Nosirov o'zining “Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari” nomli filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktorlik dissertatsiyasida batafsil to'xtalib o'tgan hamda ko'plab misollar tahlilini keltirgan.

Direktiv nutqiy aktlar adabiyotning **nazm** janrida ham ko'plab topiladi. Mashhur, o'zbek shoiri Abdulla Oripovning quyidagi misralarini misol tariqasida keltiramiz:

*Yurgil dalalarga ketaylik do'stim,*

*Diqqinafas uyda yotmoq paytimas.*

*Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun,*

*Bir pari faslning og'ushida mast.* (A.Oripov, “Mitti yulduz”, 14-bet)

Ana endi ingliz shoirlari tomonidan keltirilgan she'riy misollardan parchalar keltiramiz.

*Stop all the clocks, cut off the telephone,*

*Prevent the dog from barking with a juicy bone,*

*Silence the pianos and with muffled drum*

*Bring out the coffin, let the mourners come.*

Direktiv nutqiy aktlar muloqotning ajralmas bo'lagi bo'lganligi tufayli **nasriy asarlarda** ham ko'plab qo'llaniladi.

*“Qish kechalari sandalga tiqilib yotarkanman, yalinaman:*

*– Oyi, cho'pchak aytib bering.*

*– Uxla bolam, charchaganman.*

*– Ayta qoli-i-ing.*

*– Xo'p, ko'zingni yumib yotgin-da, eshit...”* (Dunyoning ishlari, O'. Hoshimov, 12-bet)

Ingliz tilidagi eng mashhur asarlaridan biri bo'lmish Garri Potter asari qahramoni Dambldorning so'zlariga yuzlanaylik:

*“And come back and find the house in ruins”* she snarled to Harry Potter (“Qaytib kel va uyni xarobalardan izla”, – qichqirdi u Garri Potterga)

Badiiy adabiyotning folklor janriga kiruvchi xalq maqollarida direktiv nutqiy aktlarning qo'llanilishiga doir misollar keltirsak:

*Yetti o'lchab, birni kes.*

*Avval o'yla, keyin so'yla.*

Xuddi shunday direktiv nutqiy aktlarni ingliz tilidagi maqollarda ham uchratishimiz mumkin.

*“Don't cry over the spilt/spilled milk”.*

*“Never judge the book by its cover”.*

Direktiv nutqiy aktlarning radio, televideniye va turli ijtimoiy tarmoqlardagi reklama va e'lonlarda qo'llanilishiga to'xtalib o'tamiz.

“...tana haroratingiz ko‘tarilganda, tinkangiz qurib, quvvat ketganda, sizga yordam berar, dorining nomini yaxshilab eslab qoling – Romidon”. Ko‘rsatma shaklida berilgan direktivlardan foydalanish ushbu dori vositasining reklamasida juda qo‘l kelgan. (O‘zTV arxividan)

Bundan tashqari, direktivlarning siyosiy kampaniya matnlarida, saylovoldi harakatlarda ifodalangan misollarni ham ko‘plab keltirib o‘tish mumkin.

“Kampaniyadan keyin, biz ta‘lim sohasida yangi isloxotlar qilishni taklif qilamiz.” Notiqning fikricha, sababchi harakat adresat uchun foydalidir, garchi uning ro‘yobi majburiy bo‘lmasa va uni bajarish yoki bajarmaslikni adresantning o‘zi hal qilsa-da.

Jon Ostindan so‘ng yana boshqa bir qancha tilshunos olimlar pragmatikaning asosiy tushunchalarini hamda tamoyillarini o‘rgandilarki, ularning qatoriga Oksford universiteti tilshunos olimlari B.Rassel, J.Syorl, X.Grays; fransuz pragmatika maktabining namoyandalari F.Armango, F.Latravers, D.Mengenoni; rus tilshunoslari E.I.Belyayeva, N.D.Artyunova; o‘zbek tilshunoslaridan esa A.X.Aripova, M.M.Buzrukova, A.A.Akbarovich va boshqalarni kiritish mumkin.

G‘arb tilshunosligida ushbu mavzu naqadar yangi hamda zamonaviy hisoblanib, L.P.Ernandes, A.N.Santoso kabi olimlar bir qancha izlanishlar olib borgan, ular direktiv nutqiy akti umumiy nutqiy aktlarining bir ko‘rinishi sifatida tahlil qilib, bir nechta turlarga bo‘lishgan.

Rus olimlaridan Yu.D.Apresyan, E.I.Belyayeva, N.I.Farmanovskaya, Yu.D.Apresyan, N.D.Artyunova, E.V.Paducheva, V.V.Bogdanov, V.G.Gak, I.P.Susov, A.V.Bondarko va boshqalar nutqiy aktlar nazariyasi borasida samarali izlanishlar olib borishgan<sup>9</sup>.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlar, ayniqsa, direktiv aktlar juda kam o‘rganilgan va o‘zining yechimini kutayotgan ko‘plab muammolarga ega murakkab masalalardan biri hisobalanadi, zero mazkur kategoriyaning faqatgina ba‘zi jihatlariga ya‘ni direktiv nutqiy aktlarning umumiy tavsifiga A.Nurmonov, M.Xakimov, A.X.Aripova kabi tilshunoslar ishlarida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, direktiv nutqiy aktlarning tasnifi, qo‘llanilish soxasi hamda qanday leksik yoki grammatik vositalar orqali ifodalanishiga oid keng qamrovli monografik tadqiqotlar mavjud emas.

**“Ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik tasnifi va diskursiv xoslanishi”** deb nomlangan tadqiqotning ikkinchi fasli “Preskriptiv nutqiy aktining diskursiv- vazifaviylik xususiyatlari”, “Rekvestiv nutqiy aktining strategik-funksional xossalari”, “Suggestivlar dinamikasida funksionallikning diskursiv xoslanishi” kabi paragraflardan iborat bo‘lib, mazkur bobda direktiv nutqiy aktlarning turli olimlar tomonidan taklif etilgan tasnif nazariyalarni o‘rgangan holda distributiv tahlil amalga oshirilgan.

Shuning uchun biz yuqorida zikr etilgan barcha fikrlarni inobatga olib, o‘z kuzatishlarimiz va izlanishlarimizga tayangan holda E.I.Belyayeva taklif etayotgan direktivlarning tasnifi nisbatan asosli va ishonchli deb hisobladik.

---

<sup>9</sup> Qarang: Боброва Е. Д. Роль теории речевых актов в становлении и развитии лингвистической прагматики //Russian Journal of Linguistics. – 2012. – №. 1. – С.5-11.

Suggestiv nutqiy aktlar:

1. Buyruq direktiv nutqiy akti, odatda ma'ruzachining rasmiy pozitsiyasiga ko'ra qabul qiluvchini harakatga undash huquqiga ega bo'lganligi sababli yoki vaziyat taqozo etganligi natijasida kelib chiqadigan direktiv nutqiy harakat bo'lib, bunda tinglovchining harakatga munosabati ahamiyatsiz: *"Yes," he replied. "Don't argue. Here. Give me your hand."* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, p.133) *"Ha" javob berdi u. "Bahslashmang. Mana. Qo'lingizni bering" – Sohib Todar Mal, o'zingiz tuzgan ro'yxat bo'yicha chinakam muhtoj odamlarga berilishini nazorat qiling, toki ochko'z puldorlar janda kiyib kelib, beva-bechoraning haqini olib ketmasin!* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni, 92-bet);

2. Ko'rsatma-bu ma'ruzachi pozitsiyasining ustuvorligidan foydalangan holda ma'lum bir sohada bilimga ega bo'lishiga asoslangan preskriptivlarning maxsus turi bo'lib, u qabul qiluvchining ushbu bilimlarni olishdan manfaatdor ekanligi haqidagi pragmatik taxminlarga asoslanadi: *"There are some formalities – I don't know what they are. They try to keep control of the child in some way."* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, p.310) – *Agar o'shal raiyatingizning sadoqati chin bo'lsa, kalimayi shahodatni aytib, musulmon diniga o'tsin, undan so'ng siz mingan filni boshqarsa mayli!* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni, 13-bet);

3. Ruxsat nutqni avtorizatsiya qilish akti bilan tinglovchi harakatni so'zlovchining uni amalga oshirishni xohlayotganligi to'g'risidagi oldindan taxmin asosida amalga oshirishga ruxsat beradi: *"I couldn't help it," she returned. "I was afraid – I should have told you long ago. I meant to only – only. – Oh, let me go now, and I'll tell you all when I come back!"* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, p.166) *So'ng onasining oyoqlarini quchdi. To'xtatmoqchi bo'lgan ona, navbatdagi yolvorishni eshitdi: – Onajon, ruxsat bering, bir bor yuzlarimni surayin!* (A.L.Qozonchi, O'gay ona, 54-bet);

4. Taqiq buyruqning salbiy shakli sifatida ishlaydi. Bu profilaktik nutqiy akt bo'lib, adresantning adresat uchun ma'qul kelmaydigan, unga yoqmaydigan, to'g'ri kelmaydigan, g'azablanishga majbur qiladigan ba'zi bir harakatlarni amalga oshirish istagi borligiga ishonch hosil qilingandan so'ng tinglovchiga nisbatan qo'llaniladigan ish-harakatdir: *"Oh, don't tell me what you were going to say," interposed Mrs. Sowerberry."* (Ch.Dickens, Oliver Twist, p.31) *Bayramxon fil urushida Akbarga biron kor-hol bo'lishiga xavotirlanib, avval unga ruxsat bermadi. – Tojdoru shahzodalarga, hatto, chavgon o'ynash mumkin emas, – dedi Bayramxon. – Chunki muxolif tomon qasddan go'y va chavgoncho'p bilan urib, tojdorga shikast etkazishi mumkin* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni, 172-bet);

5. Buyurtma ham preskriptiv direktiv nutqiy akt turi bo'lib, ma'lum darajada buyruq bilan tenglashtiriladi hamda ushbu nutqiy akt bilan ma'ruzachi harakatni qabul qiluvchining uni amalga oshirishni xohlayotganligi haqidagi taxmin asosida bajarishga ruxsat beradi. *"Iltimos, menga ushbu kitobni bering"* (Kutubxonada). *The Senator passed out, but remembering the old people, visited a clothier and shoe man, and, finding that he could only guess at what sizes might be required, ordered the several articles with the privilege of exchange. When his labors were over, he returned to his room.* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, p 31);

6. Talab direktiv nutqiy akti boshqa preskriptivlarga qaraganda ancha kuchli hisoblanib, odatda retsipientning o'z xohishi bilan bajarilmasligi sababi bilan izohlanadi. *"Mother, stop him. Mother, I didn't do it. it wasn't me!"* (J.K.Rowling, Harry, p.1494). *"Oyi, uni to'xtating. Oyi, men buni qilganim yo'q. Bu men emasdim!"*

Rekvestiv nutqiy aktlarning maqsadi adresatni muayyan harakatni bajarishga undash va ayni paytdagi vaziyatni o'zgartirishdir.

1. Iltimosning nutqiy akt sifatidagi asosiy xususiyati bu harakat bajarilishining majburiy emasligi, so'zlovchi uchun foydaliligi, adresatning xohishi va uning mavqe'i ustuvorligidir. *"Don't talk that way, Lester – please don't," she pleaded.* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, p.325) – *Ayt, o'g'lim, ayt, u ham meni ona desin.Tushdan keyin olib kel, maylimi? Tushdan keyin Yilmaz keldi. Ko'zlarini yerdan olmas, uyalardi.* (A.L.Qozonchi, O'gay ona, 33-bet).

2. O'tinish direktiv nutqiy akti rekvestivlarning alohida turiga tegishli bo'lib, o'tinishning farqli jihati adresatning harakatni bajarishni istamasligidir. Ushbu nutqiy aktning pragmatik presuppozitsiyasi so'zlovchining kuchli sababga ega bo'lganligi va uning tinglovchining qarshilik qilishini turli qat'iyatli usullardan foydalanib bo'lsa ham yengib o'tishiga urinishidir. – *Bo'ldi, endi bas, jonivorlarga rahmingiz kelsin! – deb o'g'liga yalinadi.* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni, 248-bet).

*"Oh, for Heaven's sake!" Hermione cried. "Listen to me all of you"* (R.K. Rowling, Harry Potter, p.1456).

3. Suggestivlar direktiv nutqiy aktlarning shunday turiki, unda asosiy o'rinda so'zlovchi turadi hamda muayyan vaziyat uchun o'zining hayotiy tajribasi yoki bilim saviyasi asosida adresat xatti harakatlarini boshqarishga huquqlidir.

*Professor Lupin smiled at the look of indignation on every face. "Don't worry. I'll speak to Professor Snape. You don't have to do the essay".* (J.K. Rowling, Harry Potter, p.834) *Buni ichki ishlar xodimlari to'g'risida yozilgan eng yaxshi material uchun mukofotlashgan. Chalib ko'ring, bitta puflab ko'ring, ovozi ham boshqacha.* (X.To'xtaboev Sariq devni minib, 233-bet)

1. Yuqorida suggestivlarga berilgan tavsifimizdan ko'rish mumkinki, maslahat nutqiy akti suggestivlarning o'zagi, uning asosiy turi hisoblanadi.

Masalan: *"Forget it, Harry" said George bracingly.* (J.K. Rowling, Harry Potter, p.746) *-Uyda zeriksangiz, o'zingiz ochgan qizlar madrasasiga boring.* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni, 210-bet)

2. Taklif nutqiy aktida so'zlovchi va uning suhbatdoshi birgalikdagi harakatga undashni nazarda tutadi va taklif nutqiy aktini bajara turib, adresant nafaqat o'zgalarning xatti-harakatlariga sabab bo'ladi, balki o'zini ham muayyan vazifa bajarishga majburlaydi. *"Won't you sit down?" They had both been standing. Jennie seated herself, and Mr. O'Brien pulled up a chair near to hers.* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, p.274) – *Do'limboy-ee, nima qilyapsan, bitta choy ichib ket.* (S.Axmad, Jimjitlik, 148-bet)

3. Ogohlantirish suggestivlarning bir turi bo'lib, xavfdan ogoh etilgandan so'ng adresatning o'z istagiga ko'ra harakatlanmaslikka asoslangan xavfning oldini olish nutqiy harakatidir: *"Anyone messing around my class will leave and not come back.*

*You have been warned.*” (J.K.Rowling, H.Potter, p.136) *Shayx Farid bilan Alibek ham: – zinhor Haybar dovoniga bormang! – deb shivirladi.* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni, 300-bet)

4. Ruhlantirish nutqiy akti suggestiv nutqiy aktning bir turi bo‘lib, u produtsient tomonidan retsipientni muayyan topshiriqni bajarishi uchun ruhlantirish vazifasini o‘taydi. Bunda odatda, tinglovchiga nisbatan “biz bu vazifani birga uddalaymiz, sening qo‘lingdan keladi” qabilida so‘zlovchining kommunikativ niyati etkaziladi. Ruhlantirish orqali adresat unga bildirilgan ishonchni oqlashga, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga shoshadi. “Biz, albatta, g‘olib bo‘lamiz, shunday emasmi?” yoxud “Sizlar mening ishonchimni oqlaysizlar, shundaymi?” “Biz birga raqibimizni mag‘lub qilamiz” kabi shiorlar, dalda beruvchi nutqlar so‘zlashi mumkin. “Oh, just open, can't you?” he said angrily. “I really need to see him, it's urgent!” (J.K.Rowling, Harry Potter, p.1483) “Voy, shunchaki oching, maylimi?” u jaxli chiqib aytdi. “Men rostdan ham uni ko‘rishim kerak, bu juda zarur!”

Biz tadqiqotimiz davomida turli diskurslardan olingan misollarni tahlil etgan holda ularning qo‘llanilish chastotasi jadvalini tuzdik va u quyidagicha ko‘rinishda:

### 1-jadval. Ingliz tilidagi direktiv nutqiy akt turlarining turli diskurslarda namoyon bo‘lish

№	Direktiv nutqiy akt kategoriyasi	Direktiv nutqiy akt turi	Maishiy diskurs	Badiiy diskurs	Media diskurs	Siyosiy diskurs	Diniy diskurs
1	Preskriptivlar	Buyruq	11	2			
		Ko‘rsatma	2	6			
		Ruxsat	8	11			
		Taqiq	20	17			
		Buyurtma	11	9	2		
		Talab	3	8			
2	Rekvestivlar	Iltimos	5	40			
		O‘tinish		6			
3	Suggestivlar	Maslahat	18	36	1		
		Taklif	16	22			
		Ogohlantirish		14			
		Ruhlantirish		6			
Jami:		274	94	177	3		

### 2-jadval. O‘zbek tilidagi direktiv nutqiy akt turlarining turli diskurslarda namoyon bo‘lish

№	Direktiv nutqiy akt kategoriyasi	Direktiv nutqiy akt turi	Maishiy diskurs	Badiiy diskurs	Media diskurs	Siyosiy diskurs	Diniy diskurs
1	Preskriptivlar	Buyruq	9	13	1		
		Ko‘rsatma	6	22		1	
		Ruxsat		6			
		Taqiq	8	15	1	1	
		Buyurtma	4	10			

		Talab	4	19	2		
2	Rekvestivlar	Iltimos	1	19			1
		O‘tinish		13			
3	Suggestivlar	Maslahat	6	16	3		
		Taklif	5	15	1	1	
		Ogohlantirish	2	3	4		
		Ruhlantirish	2	2			
	Jami:	216	47	153	12	3	1

Biz yuqorida keltirgan 1-2-jadvallarda dissertatsiyamizda foydalanilgan jami – 490 ta misollarning ingliz va o‘zbek tillarida turli diskurslarda qo‘llanilishiga ko‘ra tahlil qildik va berilgan raqamlardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida preskriptiv nutqiy aktlar asosan maishiy diskursda bo‘lib (20), ular taqiq nutqiy aktlarga tegishli; rekvestivlarning iltimos akti badiiy diskursda (40) ko‘p qo‘llanilar ekan; suggestivlarning maslahat akti esa eng ko‘p badiiy diskursda (36) uchraydi. O‘zbek tilidagi misollarni tahlil qiladigan bo‘lsak, preskriptivlardan badiiy diskursda ko‘rsatma nutqiy aktlardan ko‘p foydalanilgan (22); rekvestivlarning iltimos akti badiiy diskursda (19) eng ko‘p namoyon bo‘lgan hamda suggestivlarning maslahat shakli badiiy diskursda eng ko‘p uchragan direktiv nutqiy akt turidir (16).

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning struktur-semantik va lingvopragmatik tahlili**” nomli uchinchi fasli ham uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi “Dialogik nutqda kommunikativ muvaffaqiyatni ta‘minlash tamoyillari va nutq takti masalasi”, ikkinchi qismi “Direktiv nutqiy aktlarni ifodalovchi grammatik vositalarning struktur-semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari” hamda uchinchi qismi “Direktiv nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalarning struktur-semantik va kommunikativ-pragmatik xossalari” ga bag‘ishlangan.

Tilshunos olimlar Devid Kayeza hamda Ulug‘bek Azizov tomonidan to‘rt turli kompetensiyalar taklif etilgan bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi: **lingvistik yoki grammatik kompetensiya; pragmatik/diskurs kompetensiya; ijtimoiy-lingvistik kompetensiya; strategik kompetensiya.**

Ikkinchi faslning ikkinchi va uchinchi qismlari direktiv nutqiy aktlarning grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanishi va ularning semantik va pragmatik o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu vositalarning ingliz va o‘zbek tillarida namoyon bo‘lishi haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan hamda maishiy, badiiy, media, siyosiy va diniy diskurslardan olingan misollar bilan dalillangan.

Direktiv nutqiy aktlarni ifodalashning grammatik nuqtai nazardan bir nechta usullari mavjud bo‘lib, ularni direktivlarning turlariga ko‘ra quyidagi kategoriyalarga bo‘lib chiqdik:

1. direktiv nutqiy aktlarning buyruq mayli bilan hosil qilinishi;
2. direktiv nutqiy aktlar implitsit, ya‘ni yashirin tarzda **darak gaplar** yordamida ham yasali, bunday jumalarda keltirilgan semantik ma‘noni to‘g‘ri talqin qilish uchun tinglovchidan o‘tkir fahm-farosat talab qilinadi;

Masalan: “*Shamol esishni boshladi*” yoki “*havo sovib ketdi*” qabilidagi jumlar xonaning eshigi yoki oynasi ochiq turgan bo‘lsa, uni yopib qo‘ying yoki egingizga biron kiyim kiyib oling kabi intensiyalarni nazarda tutishi mumkin.

“*There is a little more in the bottle, my lord, if you are still hungry.*” “*Later,*” said a second voice. (J.K.Rowling, Harry Potter, p.1096)

3. umumiy so‘roq shaklida tuzilgan direktiv nutqiy aktlar orqali so‘zlovchi tinglovchini ish-harakat bajarilmaganligi taqdirida kelasida albatta bajarilishini xohlashini nazarda tutadiki, bunday so‘roq gaplarni har uchala zamonda ham qo‘llash mumkin;

4. maxsus so‘roq gaplarni hosil qilishda qo‘llaniladigan so‘roq olmoshi *Why not/ what if* bilan ifodalanadigan so‘roq gaplar odatda *you-* 2-shaxs ko‘plik kishilik olmoshi va *we-* 1-shaxs ko‘plik kishilik olmoshi bilan birga keladiki, bu harakatning to‘g‘ridan to‘g‘ri kimga yo‘naltirilganligini tushunish imkoniyatini beradi: “*Why don’t you talk to him face to face?*” (*Nega u bilan yuzma-yuz gaplashib olmaysiz?*);

5. tasdiq so‘roq gaplar orqali direktiv nutqiy aktlar ifodalanishi adresantning adresatdan kelajakda bajariladigan ish-harakatning yumshoqroq ohangda, muloyimlik bilan iltimos qilinishiga xizmat qiladi: “*You won’t tease him, will you?*” she added anxiously. (J.K.Rowling, Harry Potter, p.652) (*Sen uning jig‘iga tegmaysan, shundaymi? U xavotirlanib so‘radi.*);

6. modal fe‘llari *can/could/would/may/shall* yordamida ham direktiv nutqiy aktlar yasaladi hamda tinglovchidan muayyan ish-harakat qilishini xushmuomalalik bilan so‘rash niyatini bildiradi. *I would like to have more cookies* (Men yana ko‘proq pishiriq eyishni xohlardim );

